



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-yanvar

VII-5-3-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Kattaqo'rg'on tumanini ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish hamda “Obod xonodon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etishda sektorlar rahbarlari tomonidan “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash tizimini tubdan takomilashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-7-sonli Qarori ijrosini ta’minlash bugungi kunda Kattaqo'rg'on tumanida 69 ta mahallada jami 6152 nafar ishsiz fuqarolar (shu jumladan, 2529 nafar erkaklar, 2915 nafar xotin-qizlar va 702 nafar yoshlar) hamda mehnatga layoqatli 81 nafar nogironligi bor shaxslar mavjud.

Shuningdek, joriy yilda 106 ta umumta’lim maktabini 3443 nafar o‘quvchilar (shundan, 1439 nafar o‘g‘il bolalar va 2004 nafar qizlar) bitirishi va mehnat bozoriga kirib kelishi kutilmoqda, harbiy xizmatdan qaytadiganlar esa 222 nafarni va migratsiyadan qaytib kelishi kutilayotganlar 1335 nafarni tashkil etgan.

Kattaqo'rg'on tumani hududida 2025-yil mobaynida jami 23609 ta yangi ish o‘rni yaratilishi belgilangan.

Tuman sektor rahbarlari tomonidan mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda jami 5543 nafar ishsiz aholining bandligini ta’minlash bo‘yicha sektorlar kesimida alohida dasturlar ishlab chiqilgan.

Ayni paytda, 69 ta mahallada hududni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish hamda “Obod xonodon - obod ko‘cha - obod mahalla” mezonlarini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlarni manzilli amalga oshirish bo‘yicha “Ombor kitoblari” tayyorlangan.

Ushbu kitoblarda ishsiz aholining bandligini ta’minlash, “yettilik” tomonidan jamoatchilik faollari bilan birgalikda jami 1640 ta xonadonda “Obod xonodon” hamda mahallalar hududida “Obod ko‘cha”, “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlar belgilangan. “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Sektorlar rahbarlari J.Nasriddinov, SH.Xolmurzayev, A.Ochilov, N.Razzoqovlarning 2025-yil mobaynida tumanni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga

aylantirish hamda “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etishda sektorlar tomonidan hududlardagi “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash haqidagi dasturlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari M.Niyazova, R.G‘ulomov, H.Nigmatov, D.Baxriddinov, D.Mirzaxonova, A.Irgashev, M.Qodirova, R.Djurayevlarning:

“Tumanimizni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish - bizning bosh maqsadimiz” hamda “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etishning natijasi sifatida “Bu mening uyim, mening mahallam, mening tumanim, mening Vatanim” degan g‘oyaning tumandagi barcha darajadagi tashkilotlar, mahallalar va ta’lim muassasalarida dasturilamal bo‘lishi hamda bunda barcha deputatlar faol targ‘ibotchi bo‘lishi zarurligi;

sektorlar rahbarlari tomonidan aholi bandligini ta’minalash, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirish hamda ushbu yo‘nalishda tumandagi barcha korxona va tashkilotlar, mahallalar, ta’lim muassasalarida targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazishga alohida e’tibor qaratishlari lozimligi;

“Yoshlar daftari”ga kiritilganlarga dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer maydonini ajratish bilan bir qatorda, ular faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishda moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash kerakligi;

mahalla raislari ko‘pni ko‘rgan nuroniyalar bilan birqalikda o‘z mahallasini ishsizlik va korrupsiyadan holi hududga aylantirishda jamoatchilikning rolini yanada oshirish zarurligi;

“Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etishda barcha darajadagi deputatlar shaxsiy tashabbus va ibrat namunasini ko‘rsatish lozimligi to‘g‘risidagi takliflari ijro uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

tumanni “og‘ir tumanlar ro‘yxati”dan chiqarish maqsadida 1-sektor rahbari, tuman hokimi J.Nasriddinovning sektor hududini kambag‘allik, ishsizlik va jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, migrantlar bilan ishslash, “mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish yuzasidan 2025-yil yakuniga qadar amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar bo‘yicha yo‘l xaritasi 1-ilovaga;

tumanni “og‘ir tumanlar ro‘yxati”dan chiqarish maqsadida 2-sektor rahbari, tuman prokurori SH.Xolmurzayevning sektor hududini kambag‘allik, ishsizlik va jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, migrantlar bilan ishslash, “mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish yuzasidan 2025-yil yakuniga qadar amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar bo‘yicha yo‘l xaritasi 2-ilovaga;

tumanni “og‘ir tumanlar ro‘yxati”dan chiqarish maqsadida 3-sektor rahbari, tuman ichki ishlari bo‘limi boshlig‘i A.Ochilovning sektor hududini kambag‘allik, ishsizlik va jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, migrantlar bilan ishslash, “mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish yuzasidan 2025-yil yakuniga qadar amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar bo‘yicha yo‘l xaritasi 3-ilovaga;

tumanni “og‘ir tumanlar ro‘yxati”dan chiqarish maqsadida 4-sektor rahbari, tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Razzoqovning sektor hududini kambag‘allik, ishsizlik va jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, migrantlar bilan ishslash, “mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish yuzasidan 2025-yil yakuniga qadar amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar bo‘yicha yo‘l xaritasi 4-ilovaga;

2025-yilda tumanda aholini doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta'minlash bo'yicha yig'ma maqsadli ko'rsatkichlar 5-ilovaga;

2025-yil mobaynida tumandagi har bir sektor hududidagi aholi bandligini ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatgichlar 6-ilovaga;

tumanda har bir sektor hududidagi aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar 7-, 8-, 9-, 10-ilovalarga;

mahallalarda "Obod xonodon" mezonlari joriy etiladigan xonadonlar va ularda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo'yicha maqsadli ko'rsatgichlar 11-12-ilovalarga;

"Xavfsiz mahalla" tamoyi yuzasidan mahallalar va ta'lim muassasalarida o'rnatiladigan kuzatuv kameralariga ehtiyoj bo'yicha maqsadli ko'rsatgichlar 13-ilovaga;

tumanni ishsizlik va korruptsiyadan xoli hududga aylantirish hamda "Obod xonodon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish ishlari ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirish bo'yicha sektorlar va mahallalarga biriktirilgan xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining ro'yxati 14-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

4. Tuman sektor rahbarlari faoliyatida quyidagilar ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilsin:

tuman hokimi va mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda 2025-yil mobaynida har bir sektor hududidagi aholi bandligini ta'minlash bo'yicha 3-6-ilovalarga muvofiq tasdiqlangan manzilli dasturlar ijrosini o'z vaqtida va to'liq ta'minlash;

sektor hududidagi mahallalarni ishsizlik va korruptsiyadan holi hududga aylantirish, mahallalarda tizimli ishlarni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida va tizimli amalga oshirsinlar.

5. Tuman sektorlar rahbarlari (J.Nasriddinov, SH.Xolmurzayev, A.Ochilov, N.Razzoqov)lar:

uch kun muddatda tumanni ishsizlik va korruptsiyadan xoli hududga aylantirishda natijadorlikka erishishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarni belgilasin.

Bunda aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinalarini yaratish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyanı oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar bilan bir qatorda, ushbu yo'naliishlarda korxona va tashkilotlar, mahallalar, ta'lim muassasalarida targ'ibot tadbirlarini o'tkazishga alohida e'tibor qaratilishi inobatga olinsin;

har kuni hududdagi mahallalarda "yettilik" faoliyatini muvofiqlashtirish va amaliy ko'maklashib borish hamda mahalla raislari bilan o'zaro axborot almashish, muammolarini eshitish va hal etish choralarini ko'rib borilishini ta'minlasin;

bir kun muddatda tuman hokimi, mutasaddi tashkilotlar va mahallalardagi "yettilik" bilan birgalikda sektorlar hududidagi har bir mahallada aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar ishlab chiqilishini va ijroga qaratilishini ta'minlasin;

uch kun muddatda har bir sektor bo'yicha tasdiqlangan aholi bandligini ta'minlash manzilli dasturlarning bajarilishi yuzasidan oylik va choraklik reja-grafiklar "mahallabay" ishlab chiqsin;

har haftada "Obod xonodon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish yuzasidan mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlarni joylarga chiqqan holda o'rganib borsin hamda tuman hokimligi, mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda mavjud muammolarni hal etishga ko'maklashib borsin;

har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashiga aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar bajarilishi holati to'g'risida hisobotlar taqdim etib borsin;

har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashiga korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan hisobot berib borsin;

Bunda mahalliy byudjet va boshqa manbalar (jamg'armalar) hisobidan ajratilayotgan moddiy yordam pullari va kam ta'minlangan, iqtisodiy nochor oilalarga ajratilgan mablag'larning sarflanishi yoki ajratilishi yuzasidan alohida nazorat o'rnatilishini ta'minlasin;

hududiy investisiya loyihalarini ishga tushirishi hisobiga yaratiladigan ish o'rinlari prognozi hamda tarmoq investisiya loyihalarini ishga tushirishi hisobiga yaratiladigan yangi ish o'rinlarini muntazam ravishda tahlil qilib borilishini ta'minlasin;

har chorakda O'zbekiston mahallalar uyushmasi Kattaqo'rg'on tumani bo'limi boshlig'i (I.Nurmurodov) bilan birgalikda sektorlar hududidagi har bir mahallada aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlarning bajarilishi yuzasidan "mahalla yettiligi" a'zolarining aholiga hisobotlar taqdim etilishini tashkillashtirsin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rnbosari (N.Jo'lmatov)ga:

uch kun muddatda mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda 5-6-ilovalarda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha har bir tuman tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilasin hamda har hafta yakunida mas'ul tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini tanqidiy muhokama qilib borsin;

bir hafta muddatda "Agrobank" va "Xalq banki"ning tuman filiallari hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi bilan birgalikda 69 ta mahallaning "ombor kitoblari"ga kiritilgan ishsiz aholining bandligini ta'minlash bo'yicha kreditlar va subsidiyalarni o'z vaqtida ajratish bo'yicha qo'shimcha choralarini belgilasin.

Bunda mahallalarni "o'sish nuqtalari" (ixtisoslashuv yo'naliishlari) dan kelib chiqib yangi tadbirkorlik, jumladan "drayver" loyihalarini amalga oshirishda tashabbuskorlarga ko'maklashishni ustuvor vazifa sifatida belgilasin;

bir hafta muddatda har chorakda mutasaddilarni jalg etgan holda grafik asosida barcha mahallalarda oilalarning daromad manbalarini "xonadonbay" o'rganishlarini tashkil etsin;

doimiy ravishda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun to'siq bo'layotgan (qurilish uchun ruxsat berish, turli xil faoliyatlar uchun lisenziya olish, bo'sh bino va yer maydonlarini tadbirkorlik uchun ajratish, kommunikasiya tizimlariga ulanish) muammolarni o'rganish va tezkorlik bilan hal etish choralarini ko'rib borsin;

har chorakda grafik asosida "Agrobank" va "Xalq banki"ning tuman filiallari tomonidan biriktirilgan mahallalarda har bir xonadonga kirib, ularga kompleks bank va moliyaviy xizmatlarni taklif qilish orqali imtiyozli kreditlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishlarini ta'minlasin;

har haftada kamida 4 ta mahallaga shaxsan borgan holda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar ijrosini hamda "ombor kitoblari"ga kiritilganlarning bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yaqindan o'rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, tuman mas'ullari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin.

ikki hafta muddatda tegishli ilmiy-tadqiqot institutlarining malakali mutaxassislarini taklif qilgan holda, grafik asosida barcha sektorlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish va yetishtirish davrida resurs tejovchi innovasion texnologiyalar asosida

agrotexnika tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha dala sharoitida ko‘rgazmali seminarlarni tashkil qilsin;

o‘n kun muddatda Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi huzuridagi Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan dehqon xo‘jaliklarini tashkil etgan yoshlarga urug‘lik va boshqa moddiy-texnik resurslar yetkazib berilishini tashkillashtirsin va kunlik nazorat o‘rnatsin;

doimiy ravishda vegetasiya davrida ajratilgan suv limitlari doirasida qishloq xo‘jaligi ekinlari turlarining suvgaga bo‘lgan talabidan kelib chiqqan holda sug‘orish grafiklari asosida o‘z vaqtida suv bilan to‘liq ta‘minlash choralarini ko‘rsin;

yoshlarga ajratilgan yer maydonlarida ekinlar ekilish holati, zarur agrotexnik tadbirlarning olib borilishini o‘rganish bo‘yicha ishchi guruh tuzib, yerlardan samarali foydalanishni doimiy nazoratga olsin;

o‘n kun muddatda qishloq xo‘jalik ekinlarining tuman iqlim sharoitlariga mos keluvchi hamda zarar kunandalarga va kasalliklarga chidamli navlari, shuningdek zararkunandalarga qarshi qo‘llaniladigan preparatlar to‘g‘risida qo‘llanmalar ishlab chiqib, dehqon xo‘jaliklarini tashkil etgan yoshlarga yetkazsin;

har haftada kamida 4 ta mahallaga shaxsan borgan holda yuqoridagi chora-tadbirlarni yaqindan o‘rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, tumanda mas’ullar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin.

7. Tuman hokimligi investisiyalar va tashqi savdo bo‘limi (SH.Isaqulov)ga:

bir hafta muddatda joriy yilda tumanda investisiya loyihamalarini ishga tushirish hisobiga 847 ta yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha manzilli rejalarini ishlab chiqsin;

o‘n kun muddatda 69 ta mahalla kesimida ularning investisiya dasturlariga kiritilganligi masalasini, tadbirkorlik subyektlari mavjud bo‘lmagan mahallalardagi holatni tahlil qilib, tumanda investisiya loyihamalarini “mahallabay” shakllantirish amaliyotini joriy etish choralarini ko‘rib borsin;

bir hafta muddatda har chorakda mutasaddilarni jalb etgan holda grafik asosida barcha mahallalarda ijtimoiy-iqtisodiy holatni hamda investisiyaga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganish hamda mahalla faollari, tadbirkorlar va tashabbuskorlar bilan muloqotlar o‘tkazib borilishini tashkil etsin.

Bunda mahallalarning “o‘sish nuqtalari”ni va uni rivojlantirish yo‘nalishlarini rivojlantirish choralarini ko‘rsin;

ikki hafta muddatda investisiya dasturlarini, shu jumladan hududiy dasturlarni shakllantirishda mahalla raislarining takliflarini eshitish va inobatga olish amaliyotini yo‘lga qo‘ysin;

har haftada kamida 4 ta mahallaga shaxsan borgan holda yuqoridagi chora-tadbirlarni yaqindan o‘rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, tumanda mas’ullar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin.

8. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘ribbosari (O.Shirinov)ga:

bir hafta muddatda mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tuman bo‘yicha ishsiz bo‘lgan 702 nafar yoshlarning bandligini ta‘minlash bo‘yicha manzilli rejalarini “fuqarobay” ishlab chiqsin.

Bunda joriy yilda kasb-hunarlargaga va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitiladigan yoshlarning “mahallabay” hisob-kitoblarini qilsin;

har haftada 69 ta mahallaning “ombor kitoblari”ga kiritilgan ishsiz yoshlaming bandligini ta’minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni “mahallabay” tahlil qilib, tanqidiy muhokama qilib borsin;

bir hafta muddatda har chorakda mutasaddilarni jalgan holda grafik asosida barcha mahallalarda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirilishi jarayonlarini o‘rganish hamda yoshlar bilan muloqotlar o‘tkazib borilishini tashkil etsin;

har haftada kamida 4 ta mahallaga shaxsan borgan holda yoshlarning bandligini ta’minlash bo‘yicha manzilli dasturlar ijrosini hamda “ombor kitoblari”ga kiritilganlarning bandligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yaqindan o‘rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, tumanda mas’ullar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin;

bir oy muddatda joriy yilda umumta’lim maktablarini tamomlayotgan va mehnat bozoriga kirib kelayotgan 3443 nafar yoshlarning bandligini ta’minlash bo‘yicha manzilli rejalarini ishlab chiqsin.

9. Kattaqo‘rg‘on tuman hokimining qurilish, to‘sqliarsiz muhit yaratish, kommunikasiyalar, communal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (L.Raxmonov)ga:

bir kun muddatda tumanda mutasaddilik qiladigan tashkilotlarning hammasini mahallaga tushirish choralarini ko‘rsin va ular tomonidan tizimli ishlar olib borilishini yo‘lga qo‘ysin.

Bunda haftalik reja asosida 69 ta mahallada hashar, ozodalik, yo‘l bo‘ylariga daraxt ekish, ariqlarni tozalash, chiqindi, ichki ko‘chalar va massivlarni tartibga keltirish hamda xiyobon, piyodalar yo‘laklarini qilish ishlarini tashkil etsin;

uch kun muddatda mahallalarda “Obod xonardon – obod ko‘cha – obod mahalla” mezonlarini joriy etishda mavjud muammolarni hal etib borish tizimini yo‘lga qo‘ysin hamda 8-ilovada belgilangan maqsadli ko‘rsatgichlarga erishishda ularning rolini oshirish choralarini ko‘rsin;

bir hafta muddatda mutasaddilarni jalgan holda har chorakda grafik asosida barcha mahallalarda infratuzilma va communal sohalardagi mavjud muammolarni o‘rganish hamda mahalla faollari bilan muloqotlar o‘tkazib borilishini tashkil etsin;

bir hafta muddatda har bir mahalla ko‘chasida, ariq va yo‘l bo‘yida tut, uzum, malina, mevali daraxt, gul va iqlim sharoitiga mos bo‘lgan boshqa daraxtlarning urug‘-ko‘chatini tarqatib, besh qator qilib ektirish ishlarini tashkil etsin;

har haftada kamida 4 ta mahallaga shaxsan borgan holda yuqoridagi chora-tadbirlarni yaqindan o‘rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, tumandagi mas’ullar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin.

10. Tuman hokimining o‘rinbosari - oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i (S.Djumayeva)ga:

bir hafta muddatda mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tumanda bo‘yicha ishsiz bo‘lgan 2950 nafar xotin-qizlarning bandligini ta’minlash bo‘yicha manzilli rejalarini “fuqarobay” ishlab chiqsin.

Bunda joriy yilda kasb-hunarlargacha va tadbirkorlik ko‘nikmalarigao‘qitiladigan xotin-qizlarning “mahallabay” hisob-kitoblarini qilsin;

uch kun muddatda “PURE SILK FIBER” MCHJ va “KUMUSH TOLA” MCHJ bilan hamkorlikda 2025-yilda pillachilik sohasida band qilinadigan xotin-qizlar, bitta oila ipak qurtini boqishi natijasida qo‘srimcha daromad olishi, o‘tin va chorva mollari

ozuqa bilan ham ta'minlanishi "xonadonbay" va "fuqarobay" targ'ibot ishlarini tashkil etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqsin.

Shuningdek, "Xonadonda sanoat" loyihasi doirasida mahallalarda xotin-qizlarni jalg etgan holda ipak mahsulotlarini qayta ishlash amaliyotini joriy etsin.

Ushbu tadbirlarni tashkillashtirishda mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda, 5 ta mahalladagi xotin-qizlar faollari, "Oqila ayollar" harakati va ko'chaboshi ayollarni "Jonajon Vatanimda ipakchilikni rivojlantirishga o'z hissamni qo'shaman" shiori ostida birlashtirish choralarini ko'rsin;

har haftada mahallalarning "ombor kitoblari"ga kiritilgan ishsiz xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va har oyda mahallalardagi xotin-qizlar faollarining kamida 10 nafar xotin-qizlarni tadbirkorlik, kasanachilik va hunarmandchilikka jalg qilish bo'yicha qonunchilikda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni "mahallabay" tahlil qilib, tanqidiy muhokama qilib borsin;

har haftada kamida 4 ta mahallaga shaxsan borgan holda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar ijrosini hamda "ombor kitoblari"ga kiritilganlarning bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yaqindan o'r ganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, tumanda mas'ullar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lган chora-tadbirlarni belgilab borsin;

bir oy muddatda joriy yilda umumta'lim maktablarini tamomlayotgan va mehnat bozoriga kirib kelayotgan 2004 nafar qizlarning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli rejalarini ishlab chiqsin.

11. O'zbekiston mahallalar uyushmasining tuman bo'limi boshlig'i I.Nurmurodovga:

uch kun muddatda mahallalarda "Obod xonodon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etishda "yettilik" va mahalla faollarining biriktirilgan ko'chalar hamda jami 1640 ta xonadonda manzilli chora-tadbirlarning amalga oshirilishini hamda ular tomonidan shaxsiy ibrat namunasini ko'rsatishlarini yo'lga qo'yisin;

har haftada 69 ta mahallaning "ombor kitoblari"ga kiritilgan ishsiz yoshlarning bandligini ta'minlash, yoshlarga dehqon xo'jaliklarini yuritish uchun yer maydonlarini ajratish va ulardan samarali foydalanish hamda "Obod xonodon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni "mahallabay" tahlil qilib, tanqidiy muhokama qilib borsin;

har haftada mahallalarning balansidagi ko'rsatgichlardan kelib chiqib, mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlarni oldini olish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni belgilab borsin;

muntazam ravishda "Nuroniy" jamg'armasining tuman bo'limi (Q.Axmedov), manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda tumandagi barcha mahallalarda aholi o'rtasida "Tumanimizni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish - bizning bosh maqsadimiz" hamda "Bu mening uyim, mening mahallam, mening tumanim, mening Vatanim" degan g'oyalarning mazmun-mohiyati va ahamiyati, "boqimandalik" kayfiyatiga berilishini oldini olish, "boqimandalik - o'ziga dushman ekanligi"ni tushuntirish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini hamda bunday holatga tushib qolgan fuqarolarga nisbatan jamoatchilik ta'sirini ko'rsatish ishlarini tashkil etib borsin.

12. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov)ga:

mehnat migrasiyasidan qaytganlar, kasb-hunarga o‘qitish kurslarini tamomlaganlar bilan manzilli ishslash va doimiy bandligini ta’minlash choralarini ko‘rib borsin;

oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida imtiyozli kredit mablag‘lariningo‘zlashtirilishi va oldin ajratilgan kreditlarning qaytarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

13. Tuman prokuraturasi (SH.Xolmurzayev), tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Ochilov) tuman Adliya bo‘limi (B.Baymurodov) bilan birgalikda:

tumanni korruptsiyadan xoli hududga aylantirish, korruption jinoyatlarni oldini olish bo‘yicha targ‘ibot va ushbu toifadagi jinoyatlarga qarshi kurashish tadbirlarini kuchaytirsin;

korruption jinoyatlarni oldini olish choralarini ko‘rishda mutasaddi davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratsin;

ushbu yo‘nalishda 2025-yilning 1-yarim yilligi mobaynida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar, mavjud muammolar va ularni hal etish bo‘yicha takliflar belgilangan yozma axborotni joriy yil 10-iyulga qadar xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasiga ko‘rib chiqish uchun kirtsin.

14. Tumandagi korxona va tashkilotlar rahbarlariga:

har oyda kamida bir marotaba mutasaddilik qilinadigan bo‘lim va tashkilotlardagi mehnat jamoalarida tumanni korruptsiyadan xoli hududga aylantirish, korruption jinoyatlarni oldini olish hamda ushbu toifadagi jinoyatlar uchun javobgarlik, shuningdek “Obod xonodon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etishda shaxsiy tashabbus ko‘rsatishlari haqida tushuntirish-targ‘ibot tadbirlarini tashkillashtirib borsin.

15. Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (SH.Sultonov), tuman Adliya bo‘limi (B.Baymurodov) bilan hamkorlikda:

doimiy ravishda qo‘shma reja-dasturlar asosida tumandagi 106 ta umumta’lim maktablari o‘quvchilariga yoshlar o‘rtasida korrupsiya va uning turlari, korrupsianing davlat va jamiyat rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi salbiy oqibatlari hamda ushbu illatga nisbatan yoshlarda toqatsizlikni shakllantirish yuzasidan huquqiy tushuntirishlar olib borsin.

Shuningdek, “Tumanimizni ishsizlik va korruptsiyadan xoli hududga aylantirish - bizning bosh maqsadimiz” hamda “Bu mening uyim, mening mahallam, mening tumanim, mening Vatanim“ degan g‘oyalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini amaliy misollar orqali o‘quvchilarga yetkazilishini ta’minlasin.

16. Kattaqo‘rg‘on tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Razzoqovga:

uch kun muddatda 69 ta mahallaning har birida “Mahalla byudjeti” tizhnini joriy etish bo‘yicha prognoz ko‘rsatgichlarning ishlab chiqilishini tashkil etsin va yil davomida ushbu parametrlarga erishish choralarini ko‘rib borsin.

17. Tuman hokimi J.Nasriddinovga:

tumandagi 69 ta mahallada “Obod xonodon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish ishlarini tashkil qilish maqsadida 9-ilovaga muvofiq, mahallalarda og‘ir turmush sharoitida yashayotgan oilalarga tegishli 1640 ta (shu jumladan, 1117 ta og‘ir va 69 ta o‘ta og‘ir sharoitda yashayotgan) xonadonni ta’mirlash hamda “Xavfsiz mahalla” tamoyilini joriy etish yuzasidan mahallalar va ta’lim muassasalariga kuzatuv kameralarini o‘rnatish ishlarini tuman mahalliy byudjetining qo‘sishimcha manbalari, homiylik, xayriya hamda qonunchilik hujjatlari bilan ta’qilanganmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishini ta’minlasin.

18. Xalq deputatlari tuman Kengashining deputatlariga:

2025-yil mobaynida tumandagi har bir sektor hududidagi aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlarning bajarilishi ustidan ta'sirchan deputatlik nazoratini o'rnatsin hamda uning joylardagi ijrosini muntazam ravishda o'r ganib borish;

"Tumanimizni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish - bizning bosh maqsadimiz" hamda "Bu mening uyim, mening mahallam, mening tumanim, mening Vatanim" degan g'oyalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tumandagi barcha tashkilotlar, mahallalar va ta'lim muassasalarida targ'ibot ishlarida shaxsiy tashabbus va ibrat namunasini ko'rsatish tavsiya etilsin.

19. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari, matbuot kotibi (J.Safarov), "Kattaqo'rg'on kecha va bugun" gazetasi bosh muharriri (O'.Usmonov) bilan birgalikda:

tumanni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish hamda Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni, shuningdek sektorlar rahbarlari tomonidan "mahallabay" va "xonadonbay" ishslash tizimini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

20. Mazkur qaroring bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Xudoyberdiyev) hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash va huquqiy masalalar bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (R.Djurayev) hamda Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (D.Mirzaxonova) zimmasiga yuklansin.

21. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining
 2025-yil 28-yanvardagi
 VII-5-3-7-96-K/25 -son qaroriga
 1-ilova

**Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanini “og‘ir tumanlar ro‘yxati”dan chiqarish maqsadida 1-sektor rahbari,
 tuman hokimi J.Nasriddinovning sektor hududini kambag‘allik, ishsizlik va jinoyatchilikdan xoli
 hududga aylantirish, migrantlar bilan ishslash, “mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish
 yuzasidan 2025 yil yakuniga qadar amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar bo‘yicha
 “Y O‘ L X A R I T A S I”**

Jami 56 ta band (shundan, kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida - 7 ta band, bandlikni ta’minlash yo‘nalishida - **11 ta** band, migrantlar bilan ishslash yo‘nalishida – **9 ta**, jinoyatchilikni oldini olish yo‘nalishida –**19 ta**, “mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish yo‘nalishida – **8 ta**).

No	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyaviy manbasi	Mas’ul ijrochilar
I. Sektor hududini kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish yo‘nalishida					
1.	Sektor hududidagi kambag‘al oila a’zolarini bandligini ta’minlash, daromad-larini oshirish orqali kambag‘allik darajasini 8,2 foizdan (847 ta oila, 3878 nafar oila a’zolari) 5,3 foizgacha (346 ta oila, 1614 nafar oila a’zolari) kamaytirish.	346 ta kambag‘al oilalarga ko‘mak ko‘rsatish orqali daromadini oshirish va kambag‘allikdan chiqarish. Jumladan: <ol style="list-style-type: none"> Kambag‘al oilalardagi ishsizlarni doimiy va mavsumiy ishlarga joylashtirish. Davlat tomonidan ajratiladigan subsidiya va imtiyozli kredit ajratish hisobidan kambag‘al oilalarning daromadini oshirish. Auksion orqali ajratiladigan ekin yer maydonlaridan samarali foydalanib, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini yetishtirish va mahalliy bozorga yo‘naltirish choralarini ko‘rish. Fuqarolarni chetga ishga yuborish maqsadida xorijiy tillar va zamonaviy kasb- 	Doimiy	Mutasaddi jamg‘arma-larning mablag‘lari hisobidan	Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman hokimi o‘rinbosarlari N.Julmatov , Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i E.Raximov , tijorat banklari rahbarlari

Nº	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyaviy manbasi	Mas'ul ijrochilar
		hunarlargal o'rgatib, xorijiga tashkillashtirilgan holda ishga yuborish choralarini ko'rish.			
2.	346 nafar kambag'al oiladagi 134 nafar ishsiz fuqarolarni bandligini ta'minlash.	<p>1. 28 nafar ishsiz fuqarolarni tumandagi korxona va tashkilotlardagi bo'sh (vakant) ish o'rinaligiga ishga joylashtirish.</p> <p>2. 106 nafar ishsiz fuqarolarni mavsumiy ishlarda bandligini ta'minlash choralarini ko'rish.</p>	Doimiy	Bank kreditlari	<p>Sektor rahbari J.Nasriddinov, tuman hokimi o'rindbosarlari N.Julmatov,</p> <p>Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i E.Raximov, tijorat banklari rahbarlari</p>
3.	118 ta kambag'al oilalarni dehqonchilikka jalb etish orqali bandligini ta'minlash.	<p>1. 47 nafar kambag'al oilalardagi yosh oila a'zolariga dehqonchilikka jalb etish maqsadida belgilangan tartib asosida yer ajratilishiga ko'maklashish.</p> <p>2. 71 nafar kambag'al oila a'zolariga mevasavbzavotchilik ko'chatlari yetkazi berish, ekish, parvarishlash va realizatsiya qilishga ko'maklashish.</p>	Doimiy	Bank kreditlari	<p>Sektor rahbari J.Nasriddinov, tuman hokimi o'rindbosarlari N.Julmatov,</p> <p>Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i E.Raximov, tijorat bank rahbarlari</p>

№	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyaviy manbasi	Mas'ul ijrochilar
4.	228 ta kam daromadli kambag‘al oila a’zolarini tadbirkorlikka jalb etish choralarini ko‘rish.	<p>104 nafar kambag‘al oilalarmi a’zolariga barcha kredit resurslaridan samarali quyidagi yo‘nalishlarda imtiyozli kreditlar ajratish. Jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> – 94 nafar kambag‘al oilalarga “Oilaviy tadbirkorlik dasturi” doirasida. – 72 nafar kambag‘al oilalar a’zolariga “Biznesga birinchi qadam” dasturi bo‘yicha. – 62 nafar o‘zini o‘zi band qilgan yoki dehqon xo‘jaligi tashkil etgan kambag‘al oila a’zolariga Biznesni rivojlantirish Banki” mablag‘lari hisobidan imtiyozli kreditlar ajratish choralarini ko‘rish. 	Doimiy	Bank kreditlari	Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman hokimi o‘ribbosarlari N.Julmatov , Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i E.Raximov , tijorat banklari
5.	79 ta kambag‘al oila a’zolariga byudjetdan tashqari jamg‘armalar manbalari hisobidan subsidiyalar ajratish.	<p>1. 47 nafar ishsiz fuqarolarga, shu jumladan “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”dagi fuqarolarga 516 mln. so‘mlik asbob-uskuna yoki mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratish.</p> <p>2. 32 nafar ishsiz fuqarolarning xonardonlarida yengil konstruksiyali issiqxonalarini subsidiyalar asosida o‘rnatish.</p>	Doimiy	Mutasaddi jamg‘arma-larning mablag‘lari hisobidan	Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman hokimi o‘ribbosarlari N.Julmatov , Kambag‘allikni qisqatirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i E.Raximov , tijorat banklari rahbarlari
6.	Kasb va hunar malakasiga ega bo‘lмаган 251 ta kambag‘allarni xorijiy tillar va kasb-hunarga o‘qitilishini ta’minalash.	<p>1. 102 nafar kambag‘al oila a’zolarini kasb-hunarlarga o‘qitish.</p> <p>2. 84 nafarini tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish.</p>	Doimiy	Mablag‘ talab etilmaydi	Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman hokimi o‘ribbosarlari N.Julmatov ,

Nº	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyaviy manbasi	Mas'ul ijrochilar
		3. 65 nafarini xorijiy tillarga o‘qitib bandligini ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ko‘rish.			Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i E.Raximov , tijorat banklari rahbarlari
7.	Og‘ir va surunkali kasalga chalingan kambag‘al oila a’zolarini davolanishiga ko‘maklashish.	1. Og‘ir va surunkali kasalga chalingan kambag‘al oilalar a’zolarini kasallik turi bo‘yicha ro‘yxatini shakllantirish. 2. Tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan har bir bemor individial tartibda o‘rganib chiqilib, kasallikning darajasiga qarab tuman, viloyat va respublika shifoxonalarida davolanishiga ko‘maklashish.	Doimiy	Mutasaddi jamg‘arma-larning mablag‘lari hisobidan	Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i E.Raximov
II. Sektor hududini ishsizlikdan xoli hududga aylantirish yo‘nalishida					
8.	Sektor hududidagi mahallalarda ishslash istagida bo‘lgan 33 nafar ishsiz fuqarolarni bo‘sh (vakant) ish o‘rinlariga ishga joylashtirishga ko‘maklashish.	1. Tumandagi bo‘sh ish o‘rinlari mavjud bo‘lgan korxona va tashkilotlarning manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish. 2. Ishga joylashtirish choralarini ko‘rish uchun bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkalarini tashkil etish. 3. Ishsiz fuqarolarni hududiy bandlik bo‘limi yo‘llanmasi asosida korxona va tashkilotga yo‘naltirish.	Har oyning 5-sanasigacha Har haftada bir marta 2025 yil davomida	Bank kreditlari va tadbirkorlik mablag‘lari, subsidiya mablag‘lari	Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman hokimining o‘ribbosarlari N.Julmatov , L.Raxmonov , O.Shirinov , tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Razzoqov ,

№	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyaviy manbasi	Mas'ul ijrochilar
					kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i E.Raximov
9.	Mahallalarda imkoniyati bor ishsiz oilalarni aniqlagan holda 18 nafar fuqaroni jamoat ishlariga jalb etish.	<p>1. Haq to‘lanadigan jamoat ishlariga ishga joylashish istagida bo‘lgan fuqarolarni “Bandlik xizmati” AT xizmati orqali ro‘yxatga olish.</p> <p>2. Korxona va tashkilotlarning buyurtmasiga asosan fuqarolarni obodonlashtirish, uy-joy va kommunal ob’yektlarni ta’mirlash, mavsumiy qishloq xo‘jalik ishlariga, nogironlar, keksalar, bemorlar va boshqalarni parvarishlash ishlariga, daraxt ekish va parvarishlash, patronaj xizmati va ishlarga jalb qilish.</p> <p>3. Haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilingan ishsizlarga ish haqilarini Jamoat ishlari jamg‘armasi hisobidan to‘lab berish.</p>	2025 yil davomida		Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i E.Raximov , tegishli korxona tashkilot rahbarlari
10.	“Ishga marhamat” monomarkazi va kasb-hunarga o‘qitish markazlarida hamda nodavlat o‘quv muassasalarida mahal ladagi 312 ta ishsiz fuqarolarni kasb-	<p>1. Joriy yilda o‘quv jarayonlarida jalb etilgan ishsiz fuqarolarni o‘qitish zamонавиy kasb-hunar metodologiyasidan foydalanishni tashkil etish.</p> <p>2. Monomarkaz va o‘quv markazlaridan uzoq hududlarga joylashgan hududlardan o‘qish istagini bildirgan ishsiz fuqarolar uchun, ayni hududdagi o‘rta va o‘rta-maxsus ta’lim ob’yektlaridan bepul foydalanish</p>	2025 yil davomida	Jamoat ishlari jamg‘armasi	Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i

Nº	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyaviy manbasi	Mas'ul ijrochilar
	hunarga o'qitib, o'qish jarayonini yakunlangandan so'ng bandligini ta'minlashda ko'maklashish.	sharti asosida o'quv kurslarini tashkil etish. 3. O'qitilayotgan o'quvchilar orasidan iqtidorlilarni xalqaro ko'rik-tanlovlarida ishtirokini ta'minlash.			E.Raximov , Mahalladagi hokim yordamchilari
11.	Tadbirkorlikka o'qitish markazlarida mahalladagi 44 nafar ishsiz fuqarolarni tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish hisobiga bandligini ta'minlash.	1. Bozor iqtisodiyotidan kelib chiqib, ishsiz fuqarolarni tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qishga jalb etish. 2. O'quv jarayonini belgilangan tartib-qoidalar asosida tashkil etib, o'quvchilarga biznes rejalarini tayyorlash, moliyaviy manbalarni shakllantirish hamda davlat tomonidan tadbirkorlik sohasida yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risida tushunchalarni berish. 3. O'qish jarayonini yakunlagan bitiruvchilarga o'quv muassasasi sertifikati asosida imtiyozli kreditlar ajratilishini ta'minlash.	Har chorakda	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan	Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i E.Raximov , Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi boshlig'i I.Normuradov , tegishli korxona tashkilot rahbarlari
12.	Mahallalardagi 3 ta tadbirkorlar tomonidan kasanachilik faoliyatini yo'lga qo'yish evaziga 17 nafar fuqaroning bandligini ta'minlash.	1. 3 ta tadbirkorlar tomonidan tikuvchilik yo'nalishida kasanachilik faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida mahalladagi ishsiz fuqarolarni ushbu korxonalarga biriktirish. 2. Mahallalardagi hokim yordamchilarining tavsiyasi asosida Hunarmandchilik va kasanachilikni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	Doimiy	Bank kreditlari hisobidan	Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman tadbirkorlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i O.Tursunqulov , Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka

№	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyaviy manbasi	Mas'ul ijrochilar
		<p>hisobidan moliyaviy ko'mak berish choralarini ko'rish.</p> <p>3. Tadbirkorlar tomonidan kasanachi sifatida ishga qabul qilingan xodimlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning realizatsiyasini amalga oshirib, o'z vaqtida ish haqilarini to'lanishini ta'minlash.</p>			ko'maklashish bo'limi boshlig'i E.Raximov , Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi boshlig'i I.Normuradov , tegishli korxona tashkilot rahbarlari
13.	Tadbirkorlik va o'zini-o'zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan ishsiz fuqarolarga asbob – uskuna hamda xonardonida issiqxona yo'nali shida subsidiyalar ajratish.	<p>1. 27 nafar ishsiz fuqarolarga, shu jumladan "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" dagi fuqarolargi 750 mln so'mlik asbob-uskuna yoki mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratish.</p> <p>2. 14 nafar ishsiz fuqarolarning xonardonlarida yengil konstruksiyali issiqxonalarni subsidiyalar asosida o'rnatish.</p> <p>Hududlardagi hokim yordamchilari tomonidan subsidiya olish istagini bildirgan aholi ro'yxatini shakillantirish hamda ularga "Onlayn-mahalla" elektron platformasi orqali "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi" mablag'lari hisobidan subsidiya ajratish.</p>	2025 yil davomida	Hunarmandchil ik va kasanachilikni rivojlan-tirish jamg'armasi	Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i E.Raximov , Hokim yordamchilari va tegishli tuman tashkilotlari
14.	Mahallada " Ustoz-shogird " an'analari asosida 28 nafar yoshlarni hunarmandchilikka	1. Mahallada "Ustoz-shogird" an'analari asosida yoshlarga o'rgatayotgan hunarmandlarga shogirdlar tayyorlashi, zarur xom ashyo sotib olishi va shogirdlarni ish haqi bilan ta'minlashi uchun subsidiyalar	Doimiy	Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi jamg'armasi	Sektor rahbari J.Nasriddinov , Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka

№	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyaviy manbasi	Mas'ul ijrochilar
	jalb etish.	ajratish choralarini ko‘rish.		hisobidan	ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i E.Raximov , tegishli tuman tashkilotlari
15.	Aholi bandligini ta’minalash va tadbirkorlikka qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida yirik tadbirkorlar bilan uchrashuvlar va “Biznes sayohat”lar tashkil qilish.	<p>1. Ishsiz aholi ro‘yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Tadbirkorlar bilan uchrashuvlar tashkil qilish.</p> <p>3. Yirik tadbirkorlik ob’yektlariga sayohatlar tashkil qilish.</p> <p>4. Tadbirkorlikka qiziqadigan aholini yirik tadbirkorlarga “Ustoz-shogird” an’anasi asosida biriktirish.</p> <p>5. Kasb-hunarga qiziqishi bor aholini yirik tadbirkorga biriktirish orqali o‘qish xarajatlarini qoplab berish, o‘qishni tugatgach o‘ziga ishchi sifatida qabul qilish tartibini yo‘lga qo‘yish.</p>	Doimiy	Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hisobidan	Sektor rahbari J.Nasriddinov , «Hunarmand» uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i N.To‘xtayeva , Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i L.Abduqahhorov , Tadbirkorlikka ko‘maklashish tuman bo‘limi boshlig‘i O.Tursunqulov
16.	Sektor hududida 57 ta yangi savdo-servis ob’yektlari tashkil etish	<p>1. Sektor hududida joylashgan 19 ta MFYda yangidan 57 ta savdo-servis ob’yektlari tashkil etish orqali 143 ta yangi ish o‘rinlari tashkil etish.</p> <p>2. Norasmiy faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik sub’yektlarini faoliyatini rasmiy sektorga o‘tkazish.</p>	2025 yil yakuniga qadar	Homiylar va tadbirkorlar mablag‘lari hisobidan	Sektor rahbari J.Nasriddinov , Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i

№	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyaviy manbasi	Mas'ul ijrochilar
					E.Raximov , Tuman tadbirkorlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i O.Tursunqulov
17.	Tijorat banklari tomonidan mikroloyihalar tashkil etish, mijozbay ishslash orqali uchrashuvlar tashkil etish hamda yangi ish o‘rinlari tashkil etish.	<p>1. Tijorat banklari tomonidan 72 ta 1,2 mlrd so‘mlik mikroloyihalar amalga oshirish.</p> <p>2. Mikroloyihalarni amalga oshirishi hisobiga 140 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratish.</p> <p>3. Mijozbay ishslash orqali 32 marotaba uchrashuvlar tashkil etish.</p>	Doimiy	tadbirkorlar mablag‘lari hisobidan	Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Razzoqov , Tadbirkorlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i O.Tursunqulov , mahallalardagi hokim yordamchilari
18.	Tijorat banklari tomonidan aholi va tadbirkorlik sub’yektlariga jami 18,0 mlrd so‘m miqdorida kredit mablag‘lari ajratish orqali 1312 nafar aholining bandligini ta’minlash.	<p>1. 876 nafar aholi va tadbirkorlik sub’yektlariga jami 18,0 mlrd so‘m miqdorida kredit mablag‘lari ajratish orqali 1312 nafar aholining bandligini ta’minlash.</p> <p>2. Banklar tomonidan mijozbay ishslash orqali 28 nafar fuqaroning bandligini ta’minlash.</p>	Doimiy	tadbirkorlar mablag‘lari hisobidan	Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Razzoqov , Tuman kadastrlar palatasi boshlig‘i F.Ibragimov , mahallalardagi

Nº	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyaviy manbasi	Mas'ul ijrochilar
					hokim yordamchilari
III. Migratsiyada yurgan fuqarolarni qaytarish va ularning bandligini ta'minlash yo'nalishida					
19.	Uzoq muddatga xorijga ketgan 281 nafar mehnat migrantlaridan kam daromadli (500 dollardan kam) 28 nafarini qaytarish choralarini ko'rish hamda bandligini ta'minlash.	<p>1. Xorijga qaytariladigan fuqarolarni quyidagi yo'nalishlarda bandligini ta'minlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> - 6 nafarini bo'sh (vakant) ish o'rinaliga ishga joylashtirish. - 4 nafariga 180 mln.so'mlik imtiyozli kredit ajratish. - 3 nafariga auksion savdolari orqali yer ajratilishiga ko'maklashish. - 10 nafarini g'alladan bo'shaydigan yer maydonlariga takroriy ekin ekish uchun ajratish. - 5 nafarini mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitish. 	Yil yakuniga qadar	Bank kreditlari hamda tadbirkorlar mablag'lari hisobidan	Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman hokimi o'rinosarlari N.Julmatov , tijorat bank rahbarlari
20.	Xorijiy davlatlarning mehnat bozori ehtiyojlarini o'rganish, eng ko'p talab etiladigan kasbiy mutaxassisliklarni aniqlash va fuqarolarni ushbu mutaxassisliklarga yo'naltirish choralarini ko'rish	<p>1. Xorijiy davlatlarning mehnat bozori ehtiyojlarini o'rganish, eng ko'p talab etiladigan kasbiy mutaxassisliklarni aniqlash va fuqarolarni ushbu mutaxassisliklarga yo'naltirish.</p> <p>2. Xorijiy davlatlarda ishslash istagida bo'lgan 64 nafar fuqaroni kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitishni amalga oshirish</p> <p>Jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> 1-chorakda – 11 nafar 2-chorakda – 18 nafar 3-chorakda – 26 nafar 4-chorakda – 9 nafar 	<p>2025 yil davomida</p> <p>Yil davomida</p>	Bank kreditlari hamda tadbirkorlar mablag'lari hisobidan	Sektor rahbari J.Nasriddinov , tuman hokimi o'rinosarlari N.Julmatov , Kambag'allikni qisqatirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i E.Raximov , tijorat banklari rahbarlari

№	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyaviy manbasi	Mas'ul ijrochilar
		<p>jumladan, xorijiy ish beruvchilar va rekruting kompaniyalar bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo'shma loyihalar doirasida tashkil etilgan o'quv kurslariga xorijiy davlatlarga ketish istagida bo'lgan fuqarolarni jalb etish choralarini ko'rish.</p> <p>3. Har oy yakuni bilan xorijiy davlatlarga ketish istagida bo'lgan fuqarolarni kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish holatini tahlil qilish va aniqlangan muammolarni hal etish choralarini ko'rish.</p> <p>4. Har chorakda kamida bir marotaba xorijiy davlatlarga ketish istagida bo'lgan fuqarolarni kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish holatini masalalarini joyiga chiqib o'rganish.</p>	<p>Har oy yakuni bilan</p> <p>Har chorak yakuni bilan</p>		
21.	Hududda tashqi mehnat migratsiyasi sohasida, shu jumladan, xorijga uyushgan holda ishga joylashish tartibi, xorijiy ish beruvchilarning bo'sh ish o'rnlari, nomzodlarga qo'yilgan talablar, mehnat migrantlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida hokim yordamchilari bilan a m a l i y - s e m i n a r l a r o'tkazish.	<p>1. Amaliy-seminarlar o'tkazish jadvalini ishlab chiqish.</p> <p>2. Sektor hududida har oyda kamida bir marotaba amaliy-seminarlar o'tkazish.</p> <p>3. Har bir tashkil etiladigan seminarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2025 yildagi PF-59-Farmonida belgilangan imtiyozlar to'g'risida xorijdan qaytgan fuqarolarga, ularning oila a'zolariga hamda ishsiz fuqarolarga targ'ibot va tashviqot qilish.</p>	Yil davomida	<p>Mablag' talab etilmaydi</p> <p>kambag'allikni qisqartirish va bandlik bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i</p> <p>E.Raximov</p>	<p>Sektor rahbari J.Nasriddinov</p> <p>E.Raximov</p>

№	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyaviy manbasi	Mas'ul ijrochilar
